

ISHSIZLIK

Akbarova Barno Shuxratovna

Iqtisodiy statistika kafedrası dotsenti

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Talaba

Xamidov Diyorjon Akbar o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E mail:dxamidov544@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida aholi ish bilan bandligi siyosati va ishsizlik darajasi, mehnat bozori bilan bog'liq muammolarini yoritilish o'rganilgan. Respublikamiz shahar va shaharchalarda doimiy aholi soni, mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari, mehnat bozoridagi tanglik darajasi, ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni dinamikasi va aholining ishsizlik darajasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mehnat bozori, ish bilan bandlike, ishsizlik darajasi, mehnat resurslari.

Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi shaharlarning o'sishi va shahar aholisining shakllanishi, shahar aholisining tabiiy o'sishi, shahar atrofi hududlarining ma'muriy jihatdan shaharga qo'shib borishi, qishloq aholi manzilgohlarining shahar maqomini olishi bilan bog'liqdir. Shaharlarning o'sishida shahar atrofi zonalarida shahar turmush tarzining shakllanib borishi, ya'ni urbanizatsiya jarayonining kuchayishi ham ahamiyatlidir. Katta shahar atrofida kichik shaharlar paydo bo'lib, katta shaharlarga qo'shib boradi va shaharlar aglomeratsiyasi hosil bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda aglomeratsiya jarayoni avj olgan, alohida aglomeratsiyalarning qo'shib ketishi natijasida megapolislar vujudga kelmoqda.

1- jadval

О‘zbekistonda shahar va shaharchalarda doimiy aholi soni (ming kishi).

Кўрсаткичлар	2011 й.	2012 й.	2013 й.	2014 й.	2015 й.	2016 й.	2017 й.	2018 й.	2011–2018 йй.да ўсиш (%)
Шаҳар ва шаҳарчалар Жами, шундан яшовчилар сонига кўра, минг киши	14897,4	15143,2	15370,1	15555,2	15748,0	15963,9	16250,8	16532,7	111
3 гача	792,9	758,8	750,1	725,4	682,5	637,0	615,2	577,1	72,8
3–4,9	1421,8	1442,4	1479,8	1504,3	1552,9	1593,0	1547,4	1534,6	107,9
5–9,9	1758,2	1804,4	1882,2	1915,4	1934,2	1969,1	2021,2	2058,3	117,1
10–19,9	1793,4	1747,8	1762,1	1813,8	1792,9	1860,2	1905,1	1955,1	109,0
20–49,9	2012,4	2012,1	2029,3	2051,3	2155,6	2185,3	2255,6	2333,9	116,0
50–99,9	1237,8	1352,8	1366,7	1285,0	1302,3	1321,4	1339,7	1388,6	112,2
100–249,9	1837,5	1856,9	1874,7	1995,1	1764,3	1533,4	1552,4	1597,7	86,9
250–499,9	1754,5	1866,0	1891,2	1618,9	2198,9	2478,2	2006,8	1527,5	87,1
500–999,9	-	-	-	-	-	-	590,2	1102,0	
1 млн. ва юқори	2288,9	2302,0	2334,0	2346,0	2364,4	2386,3	2417,2	2457,9	107,4

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda aholisining soni 20 ming kishigacha bo'lgan shaharlarning umumiy soni 35 ta bo'lib, ular mamlakat shaharlari tizimining 29,4%ini tashkil etadi. Ularda 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, respublika shaharlari aholisining 37,5%i yashaydi. Aholisi 20 mingdan 50 minggaacha bo'lgan shaharlar 48 ta (shaharlar tizimining 40,3%i) bo'lib, o'tgan yili ularda istiqomat qiluvchilar jami shaharda yashovchilarning 13,9%ini tashkil etgan. O'rtacha shaharlarda

(aholisi 50-100 ming bo'lgan 19 ta shahar) shahar aholisining 8,2%dan ortig'i, katta shaharlarda (100 ming kishidan 250 ming kishigacha) 9,5 %i, yirik shaharlarda (250 ming kishidan 1 mln. kishigacha) 16,0%i, eng yirik shaharlarda (1 mln. kishidan ko'p) 14,8%i istiqomat qiladi. Boshqacha aytganda, O'zbekiston shaharlarining ko'pchiligini

(shaharlar tizimining 69,7%i) kichik va o'rta shaharlar tashkil etadi. Ularda shaharlar jami aholisining 59,6%i yashaydi. Lekin bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bulgan ishsizliklik masalasi yotadi.

Yukoridagilardan kelib chikib, aholi o'rtasida ishsizlikni kamaytirish maqsadida mehnat bozoridagi haqiqiy holatni respublikamiz mintaqalari kesimida chuqur tahlil qilish asosida aholi bandligini ta'minlash bo'yicha hududiy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqish va ularning bajarilishini muvofiqlashtirish, yangi ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha davlat buyurtmalarini ishlab chiqish bo'yicha aniq tizim asosida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ammo joylarda mehnat bozoridagi real ehtiyojdan kelib chiqib kadrlar tayyorlanmayotganligi ishsizlik darajasining oshishiga olib kelmoqda. O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev O'zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganining

26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida bu masalaga alohida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: «Men hududlarga tashrif buyurganimda odamlar bilan ko'proq muloqot qilishga harakat qilaman. Hayron qolasiz, joylarda oddiy quruvchi, traktorchy yoki mexanizator yo'q. Ishning ko'zini biladigan yer tuzuvchi yoki suvchi topish amrimahol. Ko'p joylarda kollejlarni bitirgan bolalarni kerakli kasbga qayta o'qitishga to'g'ri kelmoqda. Qani, kasb tarbiyasi? Qani, mehnat bozorini o'rganish?

Afsuski, hech kim bu masala bilan jiddiy shug'ullanmayapti.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlari asosida mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari o'rganildi (2-jadval).

2-jadvaldan ko'rinadiki, 2014-2018 yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni 4,4 foizga, iqtisodiy faol aholi soni 10,3 foizga ortgan. Iqtisodiy faol aholi sonining mehnatga layoqatli yoshdagi aholi sonidan yuqori sur'atda o'sganligi aholi

iqtisodiy faollik darajasining 2014 yildagi 71,3 foizdan 2018 yilda 75,4 foizga o'sishini ta'minlagan.

2018 yil iqtisodiyotda ish bilan band fuqarolarning o'rtacha yillik soni 13732,7 ming kishini tashkil etib, 2014 yilga nisbatan 7,1 foizga ortgan. Ko'rilayotgan davrda aholining ish bilan bandlik darajasi 67,7 foizdan 69,5 foizga o'sgan.

Respublikada aholini ish bilan ta'minlash borasida ko'rilayotgan tizimli choratadbirlarga qaramay, ishsizlik soni va darajasining ortishi kuzatilmoqda. Agar 2014 yil ishsizlar soni 687,0 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2018 yilga kelib bu ko'rsatkich 1340,3 ming kishiga yetgan yoki o'tgan 5 yilda 95,1 foizga ortgan. Tahlil qilinayotgan davrda ishsizlik darajasi 5,1 foizdan 9 foizgacha ko'paygan.

Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, 2018 yil mamlakat bo'yicha jami 58,4 mingta bo'sh ish o'rni mavjud (3-jadval).

3-jadvaldan ko'rinadiki, 2018 yilda mehnat bozorining tanglik darajasi (bitta bo'sh ish o'rniga to'g'ri keladigan ishsizlar soni) salbiy hisoblangan. Bu ko'rsatkichni hududlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan tashqari qolgan barcha hududlarda mehnat bozoridagi tanglik darajasi salbiy hisoblanadi.

2-

jadval O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorining asosiy ko'rsatkichlari.

Кўрсаткичлар	Йиллар					2018 йилда 2014 йилга нисбатан ўзга- риши, фоизда
	2014	2015	2016	2017	2018	
Меҳнатга лаёқатли ёшдаги аҳоли сони, минг киши	18929,1	19150,6	19348,9	19525,5	19753,6	104,4
Иқтисодий фаол аҳоли, минг киши	13505,4	13767,7	14022,4	14357,3	14892,3	110,3
Аҳолининг иқтисодий фаоллик даражаси, фоизда	71,3	71,9	72,5	73,5	75,4	-
Иқтисодиётда бандларнинг ўртача йиллик сони, минг киши	12818,4	13058,3	13298,4	13520,3	13732,7	107,1
Бандлик даражаси, фоизда	67,7	68,2	68,7	69,2	69,5	
Ишсизлар сони, минг киши	687,0	709,4	724,0	837,0	1340,3	195,1
Ишсизлик даражаси, фоизда	5,1	5,2	5,2	5,8	9,0	-
Иқтисодий нофаол аҳоли, минг киши	4542,6	4508,4	4466,5	4309,0	3754,5	82,7
Иқтисодий нофаоллик даражаси, фоизда	24,0	23,5	23,1	22,1	19,0	-

3–

jadval **Mehnat bozoridagi tanglik darajasi (2018 y).**

Т/р	Худуд (вилоят)лар номи	Мавжуд бўш иш ўринлари сони, мингта	Меҳнат бозоридagi танглик даражаси		Танглик даражаси сифат баҳоси
			ишсизларга нисбатан	потенциал ишсиз- ларга нисбатан	
	Республика бўйича	58,4	23	64	салбий
1.	Қорақалпоғистон Республикаси	1,4	46	223	салбий
	<i>вилоятлар:</i>				
2.	Андижон	2,1	66	143	салбий
3.	Бухоро	2,9	27	59	салбий
4.	Жиззах	1,3	33	152	салбий
5.	Қашқадарё	3,7	35	102	салбий
6.	Навоний	1,4	27	44	салбий
7.	Наманган	3,8	29	95	салбий
8.	Самарқанд	4,5	35	91	салбий
9.	Сурхондарё	2,7	39	106	салбий
10.	Сирдарё	2,6	13	25	салбий
11.	Тошкент	15,3	8	25	ўрта
12.	Фарғона	3,5	46	125	салбий
13.	Хоразм	3,6	21	60	салбий
14.	Тошкент шаҳри	9,6	10	17	ўрта

Mamlakatimizda ishsizlikning oldini olishning eng makbul yullaridan biri bu, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik oilaviy tadbirkorlik, uy xujaligi tamorkalaridan foydalanish xamda uz-uzini yollashdan iboratdir.

Har qanday jamiyat rivojlanishining asosiy maqsadi aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan bo'ladi. Jamiyatning ijtimoiy barqarorligini, iqtisodiy rivojlanishini, tinchligini ta'minlash, inson sog'lom va farovon hayot kechirishi uchun davlat kuchli ijtimoiy siyosat olib boradi.

Shularni inobatga olganda, O'zbekistonda Harakatlar strategiyasining dastlabki bosqichlaridan aholining turmush farovonligi hamda hayoti sifatini ta'minlash yuzasidan katta yaratuvchilik ishlari amalga oshirildi. Bugungi kunda Davlat budjetining 60 foizidan ortig'i ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilmoqda.

Bu aholining turmush sharoitini yaxshilash, hayot sifati darajasini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga aholini, ayniqsa, qishloq aholisini yangi shinam uyjoylar bilan ta'minlash amalga oshirilmoqda. Aholi daromadlari ko'payishi esa ularning hayot farovonligini ko'tarishga asos bo'lmoqda.

Mamlakatimizda kulay ishbilarmonlik muxitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida katr ijodiy uzgarishlar amalga oshirilmokda. Uz urnida, tadbirkorilik subyektlarini davlat ruyxatidan utkazish va xisobga kuyish borasida xam konunchilikda muxim karorlar kabul kilinib, davlat ruyxatidan utkazish va xisobga kuyishni avtomatlashtirilgan tizimi boskichma-boskich ishlab chikilib, amaliyotga tadbik kilinmokda. Bu esa axoli xamda xorijiy sarmoyalarning uz shaxsiy biznesini yulga kuyish va rivojlantirish uchun muxim omil bulib xizmat kilmokda.

Mamlakat axolisining farovonlik darajasini ifodalovchi muxim kursatkichlaridan biri axoli daromadlari xisoblanadi. Axolining umumiy daromadlari – majburiy tulovlar va boshka ajratmalarni amalga oshirgunga kadar bulgan yalpi daromadni ifoda etadi.

yilning yanvar-dekabr oyida Respublikada 55,0 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa utgan yilning shu davriga nisbatan 14,0 mingtaga kupdir.

Natijada, faoliyat kursatayotgan korxona va tashkilotlar soni utgan yilning shu davriga solishtirilganda 38,0 mingta (13,3 %) ga usgan xamda ularning umumiy soni 323,5 mingtani tashkil etgan.

yilning 1 yanvar xolatiga 339,0 mingta korxonalar va tashkilotlar ruyxatidan utgan bulib, iktisodiy faoliyat turlari buyicha 22,1 % savdo, 17,5 % sanoat, 9 % kurilish, 7,7 % kishlok, urmon va balik xujaligi, 6,2 % yashash va ovkatlanish buyicha xizmatlar, 4,1 % tashish va saklash, 2,2 % axborot va aloka, 2,0 % solikni saklash va ijtimoiy xizmalar xamda 29,2 % boshka faoliyat turlari xissasiga tugri kelmokda. Bu esa mamlakatimizda yangi ish urinlarining tashkil etilganligi ishsizlik masalasi xal etilayotganligidan dalolat beradi.

38,0 mingta (13,3 %) ga usgan.

Xududlar kesimida karalganda, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni eng kupi Toshkent shaxri (69236 ta), Toshkent (31030 ta), Fargona (29128 ta), Fargona (27391 ta) va Samarkand (25066 ta) viloyatlari xissasiga tugri keladi. Aksincha Sirdaryo (10367 ta), Navoiy (11175 ta) xamda Jizzax (14226 ta) viloyatlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

Xususan, shaxsning fuqarolik erkinligi xodimga mehnatni qo'llash sohasi, undan foydalanish sharoitlari va ish haqini erkin tanlash xuquqini rasmiy beradi. Erkin subyekt sifatida u shaxsiy mulkchilik va o'zining ishchi kuchiga egalik xuquqiga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonunida ta'kidlanganidek, «O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga ishlab chiqarish va ijodiy mehnat uchun o'z qobiliyatlariga egalik qilish va qonunchilik man qilmaydigan har qanday faoliyat bilan shug'ullanish xuquqi berilgan. Mehnatga har qanday shaklda

ma'muriy majbur qilishga yo'l qo'yilmaydi. Kishilarning ixtiyoriy band bo'lmasligi ularni javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi».

Davlat ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholiga quyidagilarni kafolatlaydi:

- ishsizlik nafaqasini to'lash;
- mehnat organlarining yo'llanmasi bo'yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to'lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo'shish;
- ishsiz shaxsga qaramog'idagilarini hisobga olgan holda, moddiy yordam berish;
- haq to'lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati;
- mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko'chish bilan bog'liq xarajatlarini qoplash.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni ortib bormoqda (4-jadval).

4-jadvaldan ko'rinib turganidek, 2017-2019 yillarda O'zbekiston Respublikasida ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni 9,1 ming kishiga yoki 98,5 foizga ortgan. Ko'rilayotgan davrda ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi sonining o'sish sur'ati bir meyorda kechmagan. Xususan, 2017 yilda ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni 12 foizga ortgan bo'lsa, 2019 yilda ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi sonining kamayishi kuzatilib, 2019 yilda 2017 yilga nisbatan 1,5 foizga qisqargan.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasida ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholi soni dinamikasi (ming kishi hisobida)

Худудлар	Й и л л а р			2019 йилда	2017
				йилга ўзгариш	нисбатан
	2015	2016	2017	+, -	Фоиз
Республика бўйича	631,5	628,2	622,4	9,1	98,5
Фаргона	65,6	65,1	64,6	1,0	98,4
Фаргона вилояти улуши	10,3	10,4	10,4	0,1	х

Buni aholi ish bilan bandligini oshirish bo'yicha qilinayotgan ishlar, vazifalarning, xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish, fermer va dehqon xo'jaliklarini kengaytirish va ularga yaratilayotgan imkoniyatlar mahsuli deya ta'kidlash mumkin.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma'lumotlari ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholining asosiy qismini mustaqil ish qidirayotganlar tashkil qilishini ko'rsatadi. Jumladan, 2017 yilda respublika bo'yicha jami ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholining 95,3 foizini mustaqil ish qidirayotganlar tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 97,7 foizga teng bo'lgan. Ko'rilayotgan davrda bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar ulushi mos ravishda 4,7 va 2,3 foizga teng bo'lgan.


Respublikada ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining ortishi ishsizlik darajasining kamayishini ta'minladi.

2015-2019 yillarda yurtimizda aholining ishsizlik darajasi bir meyorda bo'lgan, ya'ni 5 foizni tashkil qilgan. Biroq bu ko'rsatkichning yillar bo'yicha o'zgarishi uning bir meyorda bo'lmaganini ko'rsatadi. Jumladan, 2015-2016 yillarda ishsizlik darajasi

0,1 bandga kamaygan, 2016-2017 yillarda 0,4 bandga ko'paygan, 201-2019 yillarda esa 5,3 foizdan 5 foizga tushgan yoki 0,3 bandga kamaygan (2-rasm).

2-rasm.

О'zbekiston Respublikasida aholining ishsizlik darajasi, foiz.



Taxlillar, ish izlab mehnat muassasalariga murojaat qilganlar, ish bilan ta'minlanganlar soni yildan-yilga oshib, ishsizlar soni va darajasi pasayib borayotganligini ko'rsatadi. Buning asosiy sababi:

- iqtisodiy faol aholi va ish bilan band aholining o'sib borishi;

- mehnat resurslarining yuqori sur'atlarda o'sishi, mehnat muassasalari xizmatlarining yaxshilanishi va ularga ish izlab murojaat qilayotganlar sonining oshishi;

- mehnat muassasalari taklif etayotgan ko'plab bo'sh ish o'rinlarining mavjudligi, fuqarolarni ishga joylashtirish faoliyatining yaxshilanishi va buning natijasida ish izlab murojaat qilganlar aksariyat qismining ish bilan ta'minlanishi.

Viloyatda Respublika aholisining 9 foizi istiqomat qiladi. Aholining 49,1 foizi yoki 1251,7 ming nafari qishloqlarda, 50,9 foizi yoki 1297,3 ming nafari shaharlarda yashaydilar. Bular 102 millat va elatlarga mansub kishilardir.

2014 yildi 62,0 ming nafar o'g'il va qizlar tug'ilib, ularning 35, 2 ming nafari qishloq joylarga to'g'ri keldi. Aholining yillik o'rtacha o'sishi 43 ming kishini tashkil etdi.

Viloyatda aholi zichligi Respublika bo'yicha eng yuqori bo'lib, 1 kv.km.ga 592,5 kishi to'g'ri keldi.

2019 yilda viloyatda 1490,9 mingta mehnatga layoqatli aholi bo'lib, ularning 1079,1 mingtasi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida banddirlar. Shundan davlat tasarrufidaga tashkilotlarda 172,7 ming kishi, iqtisodiyotning muqobil turlarida 906,4 ming kishi mehnat qiladi.

Demografik jarayonlarga bog'liq holda, yurtimizda mehnat resurslari soni yil sayin ortib bormoqda.

REFERENCES

1. Abduraxmonov Q.X., Shoyusupova N.T. Aholini ish bilan bandligi. O'quv qo'llanma. – T.: 2011. - 291 b.
2. Xolmo'minov Sh.R., Xolmurodov S.E. Mehnat bozori iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: 2013. - 228 b.

3. Xolmo‘minov Sh.R. Mehnat bozori iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2004. – 144
4. O. E. Axunova, Z. S. Salimjonova, Sh. E. Nematova. The role of human capital in economic development. EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES. 2022. Innovative Academy Research Support Center www.in-academy.uz
5. O. E. Axunova. Analysis of the causes of unemployment in modern Uzbekistan and the negative consequences of wau. International Engineering Journal for Research & Development. 2022
6. Axunova, O. E., & Nematova, S. E. (2021). LABOR MARKET PROBLEMS IN UZBEKISTAN IN THE CONTEXT OF COVID-19 PANDEMIC. GLOBUS, 7(8), 21-24.
7. Ахунова, О. Э., Олимова, Н. Х., & Хамидова, З. А. (2019). ВЛИЯНИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ НА РЫНКЕ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ НА НАЦИОНАЛЬНОЕ ПРИКЛАДНОЕ ИСКУССТВО И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СТРАНЫ. НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 24.